



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
BANDLIK VA MEHNAT MUNOSABATLARI VAZIRLIGI**

**BUYRUQ**

2022-yil “ 28 ” iyun

188- ICH son

Toshkent sh.

**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar  
Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi  
276-sonli qarori to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-may kungi “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 276-sonli qarorini ijro etish maqsadida,

**BUYURAMAN**

1. O‘zbekiston Respublikasi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta‘minlash, shuningdek, davlat xaridlarini amalga oshirishning raqobatli usullarini amaliyotga joriy etish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi 276-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tizimida “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonunining eng yaxshi takliflarni tanlash va tender xarid qilish tartib-taomillarini majburiy tartibda elektron shaklda o‘tkazish to‘g‘risidagi talabi 2022-yil 1-yanvardan boshlab kuchga kiritilganligi inobatga olinsin.

3. Vazirlik markaziy apparati, hududiy mehnat organlari va tasarrufiy tashkilotlar mazkur qarorning “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga qat‘iy amal qilgan holda xaridlarni amalga oshirsin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining 2020-yil 23-oktyabrda 200-ICH-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Tanlov (tender) o‘tkazish bo‘yicha xarid komissiyasi tarkibi to‘g‘risida”gi 1-ilovasi o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

5. Davlat xaridlarini amalga oshirish jarayonida korrupsion holatlar yuzaga kelishi va manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish, tashkil etiladigan eng yaxshi takliflarni tanlash va tender xarid qilish jarayonlari shaffoflik va xolislik prinsiplariga asosan amalga oshirilishini ta‘minlash maqsadida Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligida eng yaxshi takliflarni tanlash va tender xaridlarini o‘tkazish bo‘yicha xarid komissiyasi tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining eng yaxshi takliflarni tanlash va tender xaridlarini o'tkazish bo'yicha xarid komissiyasi, vazirlikning 2020-yil 23-oktyabrda 200-ICH-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligida tashkil etilgan tanlov (tender) o'tkazish bo'yicha xarid komissiyalari to'g'risida"gi Nizom(2-ilova)ga qat'iy amal qilgan holda xaridlar amalga oshirilishi maqullansin.

Bundan tashqari, mazkur buyruqning 2-ilovasining nomlanishidagi "O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligida tashkil etiladigan tanlov (tender)lar o'tkazish bo'yicha xarid komissiyalari to'g'risida Nizom:" so'zlari "O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligida tashkil etiladigan eng yaxshi takliflarni tanlash va tenderlar o'tkazish bo'yicha xarid komissiyalari to'g'risida Nizom:" deb hamda Nizomdagi "tanlov (tender) o'tkazish" so'zlari "eng yaxshi takliflarni tanlash va tender o'tkazish" deb o'qilsin.

7. Vazirlikni 2021-yil 26-apreldagi 172-ICH-sonli buyruqning 2-bandi to'rtinchi xatboshisi hamda 9-bandi uchinchi xatboshisi o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.


2022-yil 9-fevraldagi 27-ICH-sonli buyruqning 3-bandi to'rtinchi xatboshisidagi "xarid komissiyasiga nazoratchi vakil sifatida Mehnat tizimi tashkilotlarida xaridlarni muvofiqlashtirish bo'limi (B.Pardayev) kiritilsin:" degan so'zlari "xarid komissiyasiga vakil sifatida Mehnat tizimi tashkilotlarida xaridlarni muvofiqlashtirish bo'limi (B.Pardayev) kiritilsin:" so'zlari bilan almashtirilsin.

Shuningdek, 2021-yil 26-noyabrdagi 434-ICH-son bilan tasdiqlangan buyruqning 4-bandidagi "o'n kun muddatda" degan so'zlari chiqarib tashlansin.

8. Ushbu buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o'rinbosari E. Muxitdinov zimmasiga yuklansin.



N. Xusanov



O'zbekiston Respublikasi  
Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining  
2022-yil "28" iyun dagi 188-124-son buyrug'iga  
ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligida eng yaxshi takliflarni tanlash va tender o'tkazish bo'yicha xarid komissiyasi

**T A R K I B I**

E. Muxitdinov	Vazirning birinchi o'rinbosari (komissiya raisi)
B. Umurzakov	Vazir o'rinbosari (komissiya raisi o'rinbosari)
N. Yakubov	Vazir o'rinbosari (komissiya raisi o'rinbosari)
M. Mirzayeva	Matbuot kotibi (komissiya a'zosi)
Lavozimi bo'yicha	Kasb-hunarga o'qitishni tashkil etish va kasbiy malakani rivojlantirish departamenti boshlig'i (komissiya a'zosi)
A. Toshmatov	Bandlikka ko'maklashish Davlat jamg'armasi mablag'laridan samarali va maqsadli foydalanish boshqarmasi boshlig'i (komissiya a'zosi)
T. Malikov	Ishlar boshqarmasi boshlig'i (komissiya a'zosi)
B. Axmadaliyev	Bosh hisobchi (komissiya a'zosi)
A. Abdukarimov	Yuridik bo'lib boshlig'i (komissiya a'zosi)
M. Pulatova	Moliyaviy-nazorat bo'limi boshlig'i (komissiya a'zosi)
D. Temirov	Komplayns-nazorat bo'limi boshlig'i (komissiya a'zosi)
B. Pardayev	Mehnat tizimi tashkilotlarida xaridlarni muvofiqlashtirish bo'limi boshlig'i (komissiya kotibi)

*Izoh: Komissiyaning a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimlarga yangi tayinlangan shaxslar kiritiladi.*

*"Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunga muvofiq komissiya a'zolari tarkibi davlat xaridlarining o'tkazilishi xususiyatlaridan kelib chiqib o'zgartirish kiritilishi mumkin.*